



SOLIQ BAZASINING SOLIQ ELEMENTLARI BILAN O'ZARO BOG'LQLIGI

PhD Xalikchayeva Sadokat Ilhomjonovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy tadqiqot markazi

ORCID: 0009-0002-8782-2762

xalikchayeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada soliqqa tortish elementlarining har biri va unda soliq bazasining bu elementlar bilan o'zaro aloqalari haqida batafsil ma'lumot beriladi tahlil qilinadi. Chunonchi, soliq elementlarining tarkibi qanday qilib soliq bazasini shakllantirishda va davlatning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda ahamiyat kasb etishi ko'rib chiqilgan. Shuningdek, soliq tizimlarining samaradorligini oshirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida soliq bazasini kengaytirish va optimallashtirish masalalariga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: soliqlar, soliq tizimi, soliq siyosati, soliq bazasi, soliq elementlari, soliq obyekti, soliq imtiyozlari, soliq davri.

СВЯЗЬ НАЛОГОВОЙ БАЗЫ С НАЛОГОВЫМИ ЭЛЕМЕНТАМИ

PhD Халикчаева Садокат Илхамжановна

Научно-исследовательский центр «Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана» при Ташкентском государственном экономическом университете

Аннотация. В данной статье представлена подробная информация и анализ каждого из элементов налогообложения, а также взаимосвязи между налоговой базой и этими элементами. Например, было рассмотрено, какую роль играет состав элементов налога в формировании налоговой базы и обеспечении финансовой устойчивости государства. Также были затронуты вопросы расширения и оптимизации налоговой базы для повышения эффективности налоговых систем и стимулирования экономического роста.

Ключевые слова: налоги, налоговая система, налоговая политика, налоговая база, элементы налога, объект налогообложения, налоговые льготы, налоговый период.

INTERRELATIONSHIP OF THE TAX BASE WITH TAX ELEMENTS

PhD Khalikchayeva Sadokat Ilhomjonovna

Scientific Research Center "Scientific Foundations and Problems of the Development of the Economy of Uzbekistan" at Tashkent State University of Economics

Abstract. This article provides detailed information and analysis of each of the elements of taxation and the relationship between the tax base and these elements. In particular, it examines how the composition of tax elements plays a role in the formation of the tax base and ensuring the financial stability of the state. It also discusses the issues of expanding and optimizing the tax base in order to increase the efficiency of tax systems and stimulate economic growth.

Key words: taxes, tax system, tax policy, tax base, tax elements, tax object, tax privilege, tax period.

Kirish.

Soliq tizimi har bir davlatning iqtisodiy asosini tashkil etuvchi muhim mexanizm ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, qanaqadir faoliyatdan, darmaddan yoki vaziyatdan qancha qismini soliqqa tortish lozimligini soliq bazasining aniqlanish tartibi va xususiyatlari belgilab beradi. U iqtisodiy faoliyatni tartibga solish, davlatning moliyaviy resurslarini shakllantirish va ijtimoiy masalalarini hal etishda muhim rol o'yaydi.

Xalqaro hamjamiyatimiz mamlakatlari soliq tizimida soliq bazasini aniqlash tartibini takomillashtirish bilan bog'liq soliq hisoboti va axborot almashinuvining umumiy standartlarini ishlab chiqish, soliq qonunchiligining tushunish darajasini soddallashtirish choralar, soliq organlari potensial soliqdan bo'yin tovlash va qochish holatlarini aniqlashga yordam beruvchi ma'lumotlarni toplash va tahlil qilishni yaxshilash texnologiyalaridan foydalanish, soliq to'lashdan bo'yin tovlaganlik va qochish uchun jazolarni kuchaytirish, mamlakatlar soliq qonunchiligidagi tafovutlarni kamaytirish va turli yurisdiksiyalar bo'yicha soliq solish bazalarini solishtirishni osonlashtirish uchun soliq tizimlarini uyg'unlashtirishga oid ilmiy tadqiqotlar ustuvor vazifalar hisoblanadi.

Soliq bazasi – bu soliq to'lovchidan olinadigan soliq miqdorini aniqlashda asos bo'lib xizmat qiluvchi moliyaviy ko'rsatkichdir. Ya'ni soliq to'lovchilar, ularning daromadlari va xarajatlari, shuningdek, soliq qonunchiligidagi belgilangan soliq elementlari to'plamidir. Soliq elementlari esa soliq bazasini shakllantiruvchi asosiy komponentlar bo'lib, ular soliq stavkalari, soliq imtiyozlari, soliq to'lovlari va boshqa ko'rsatkichlardan iborat.

Bu maqolada ushbu tushunchalarning har biri va ularning o'zaro aloqalari haqida batafsil ma'lumot beriladi va tahlil qilinadi. Chunonchi, soliq elementlarining har biri qanday qilib soliq bazasini shakllantirishda va davlatning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda ahamiyat kasb etishini ko'rib chiqamiz. Shuningdek, soliq tizimlarining samaradorligini oshirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida soliq bazasini kengaytirish va optimallashtirish masalalarini mushohada qilishni ushbu maqolamizning maqsadi sifatida belgilab oldik.

Adabiyotlar sharhi.

Soliq bazasi va soliq solish elementlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rghanish iqtisodiyotning muhim jihatlaridan biridir. Soliq bazasi va soliq solish elementlari o'zaro bog'liqligi bo'yicha bir qator olimlar va tadqiqotchilar muhim ishlar olib borgan bo'lib, bu fikrlar asnosida soliq tizimi bugungi ko'rinishini kasb etgan. Quyida sanab o'tmoqchi bo'lgan tadqiqotlar bu bog'liqlikni tushunishga yordam beradi va davlat siyosatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Jumladan, klassik iqtisodchilar soliqqa tortish elementlari va soliq bazasini shakllantirishdaadolat, qulaylik va oshkorali kabi tamoyillarni (Adam Smit, 1776), soliq tizimining samaradorligini ta'minlashda soliq bazasini kengaytirish zarurligini (David Ricardo, 1817), soliq bazasini kengaytirish va soliq elementlarini boshqarish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish mumkinligini (John Maynard Keyns, 1936), soliq bazasi, soliq elementlari hamda individual erkinlik o'rtasidagi bog'liqlikni (Milton Friedman, 1962) ilgari surishgan.

Xususan, boshqa tadqiqotlarda soliq tiziminingadolatli va samarali bo'lishi uchun soliq bazasining kengligi va soliq stavkalarining mos kelishi zarurligi soliq bazasini kengaytirish orqali davlatning moliyaviy imkoniyatlarini oshirish mumkinligi ko'rsatilgan (Richard Musgrave, 1989).

Shuningdek, ba'zi tadqiqotlarda iqtisodiy tengsizlik va soliq tizimlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rghanib, soliq bazasining kengayishi va soliq imtiyozlarining ta'siri tahlili soliq tiziminingadolatli bo'lishi uchun, soliq bazasini kengaytirish va samarali soliq elementlarini joriy etish zarurligi ta'kidlagan (Joseph Stiglitz, 1999) bo'lsa, ba'zi tadqiqotlar soliq siyosati va iqtisodiy rivojlanish sohasida soliq bazasi va soliq elementlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rghanib, soliq imtiyozlari va chegirmalarining iqtisodiy faoliyatga ta'sirini tahlil qilgan. Bu izlanishlar soliq bazasining kengayishi iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini izohlagan (Alfredo Garcia, 2002).

Qolaversa, soliq bazasining kengayishi va soliq stavkalari o'rtasidagi bog'liqlikda yuqori soliq stavkalari iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatishi va aksincha esa soliq bazasini kengaytirish orqali davlat moliyasini yaxshilash mumkinligini (Martín Feldstein va boshqalar, 1976), soliq bazasini aniqlash, imtiyozlar va moliyaviy xizmatlarni ko'rib chiqish ustida mamlakatlar tomonidan qo'llaniladigan turli yondashuvlar va ularning oqibatlarini tahlil qilganligini (Keen va Lokvud, 2017) qo'shilga qiymat solig'i tizimida bu soliq bazasini kengaytirishning turli xil variantlari, masalan, imtiyozlarni qisqartirish va yangi soliq stavkalarini joriy etishni muhokama qilingani (Ebrill va boshqalar, 2011) soliq bazasining soliq solishning boshqa elementlari bilan bog'liqligiga ishora etadi.


Yuqoridagilar bilan bir qatorda mahalliy iqtisodchilarimiz tadqiqotlarida esa soliq bazasining soliqqa tortishning eng muhim elementi hisoblangan soliq obyekti bilan uzviy bog'liqligi, bunda soliq obyekti soliq bazasidan katta, kichik yoki teng holatda bo'lishi mumkinligi (Xudoyqulov, 2020), soliq bazasini soliq obyektiga birmuncha o'xshab ketishi (Jo'rayev, Shirinov., 2015), soliq bazasi soliq obyektidan katta yoki kichikligi bilan farq qilishi vaziyatlari (Vahobov, Jo'rayev, 2009) kabi tadqiqotlar ham benihoya muhimdir.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot metadalogiyasi sifatida O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi va soliq siyosatida olib borilayotgan soliq islohotlari, soliq kodeksi, qonunlari va qonun osti xujjatlarini chuqur o'rganish davomida soliq elementlarini o'rganish orqali analiz va sintez, kuzatish, ilmiy mushohada, ma'lumotlarni guruhash hamda klassifikatsiyalash orqali nazariy tahlil usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Soliq elementi – bu soliq tizimida mavjud bo'lgan asosiy komponentlar yoki omillar hisoblanib, respublikamiz soliq kodeksiga muvofiq ularni quyidagicha tasvirlash mumkin (1-rasmga qarang).



1-rasm. Soliqqa tortish elementlarining tarkiy qismi


Manba: O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksiga asosan muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

1-rasmga muvofiq soliqqa tortish elementlari sifatida 7 ta omil hisobga olingan bo'lib, ular soliq solish obyekti, soliq bazasi, soliq stavkasi, soliq davri, soliqni hisoblab chiqarish tartibi, soliq hisobotini taqdim etish tartibi va soliqni to'lash tartibi kabilardan iborat. Biroq, soliq imtiyozi ham soliqni belgilashda asos sifatida nazarda tutilishi mumkin. Shunday ekan qaysidir

ma'noda soliq imtiyozini ham soliq elementi sifatida bu qism tarkibiga kiritisa bo'ladi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda har bir soliq elementi haqida fikrlashadigan bo'lsak, soliq obyekti soliqlarni belgilash va uning yig'ilishadagi eng asosiy element hisoblanadi. Ya'ni, "Soliq solish obyekti mol-mulk, harakat, harakat natijasi yoki qiymat, miqdoriy yoki fizik xususiyatga ega bo'lgan boshqa holat bo'lib, u mavjud bo'lganda soliq to'g'risidagi qonunchilik soliq to'lovchida soliq majburiyatini vujudga keltiradi" (Kodeks, 2022). Sodda qilib tushuntiradigan bo'lsak, Soliq obyektlari – bu soliq solinadigan aktivlar yoki faoliyatlardir. Ular ko'pincha mol-mulk, daromad, iste'mol yoki xizmatlar kabi turli shakllarda bo'lishi mumkin.

Soliq obyektlarining turlari va ularning har biri uchun belgilangan soliq stavkalari soliq bazasining shakllanishida muhim rol o'yнaydi. Bu holat soliq obyektini soliq bazasi bilan ilmiy jihatdan bog'lash uchun bir necha asosiy tamoyillar va tushunchalarni ko'rib chiqishni talab qiladi.



2-rasm. Soliq obyektining soliq bazasi bilan o'zaro bog'liqligini ko'rsatuvchi omillar

Manba: muallif ishlanmasi.

2-rasmda keltirilgan chizmada soliq obyektining soliq bazasi bilan o'zaro bog'liqligini tasvirlovchi omillar ko'rsatib o'tilgan bolib, xususan, soliq bazasi bilan soliq obyekti o'rtasidagi bog'lanishni soliq obyektining soliq bazasiga ta'siri orqali izohlanganini ko'rish mumkin. Demak, yuqoridagi ta'riflardan kelib chiqsak, soliq obyektining xarakteristikasi (masalan, qiymati, miqdori, turlari) soliq bazasining shakllanishiga bevosita ta'sir qiladi deya olamiz. Jumladan, agar soliq obyekti sifatida ko'rsatilgan mol-mulk qiymati oshsa, bu soliq bazasini kengayishiga olib keladi.

Qolaversa, 2-rasmga muvofiq soliq obyektlari va soliq bazasi o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalash uchun empirik tadqiqotlar ham juda mos hisoblanadi. Bu tadqiqotlarda turli mamlakatlarda yoki mintaqalarda soliq obyektlari va ularning qiymatlari o'rganiladi. Chunonchi, mol-mulk solig'i bo'yicha tadqiqot olib borilib, mol-mulkning qiymati va undagi soliq bazasi o'rtasidagi korrelyatsiyani aniqlash mumkin. Iqtisodchi Gary Becker (1976) aynan o'zining iqtisodiy nazariyalarida soliq obyekti va bazasini ijtimoiy va iqtisodiy omillar bilan bog'lab o'rGANADI. U soliq siyosatining ijtimoiy ta'sirlarini ham ko'rib chiqqani fikrimizga misol bo'la oladi.


Shuningdek, soliq nazariyasi doirasida soliq obyektlari va soliq bazasi o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirish uchun iqtisodiy model va nazariyalar ishlab chiqilgani ham fikrimizning yana bir tasdig'idir. Masalan, "supply and demand" (taqdimot va talab) modeli orqali soliq obyektlarining qiymati qanday shakllanishi va bu qiymatning soliq bazasiga ta'siri tahlil qilingan. Masalan, iqtisodchi olim Poterba (1983) ekonometrik modellaridan, logit-probit va chiziqli regressiya modellaridan foydalangan holda soliq bazasiga oid tadqiqotlar olib borgan.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda qonuniy asoslar va soliq siyosati ham soliq obyektining soliq bazasi bilan uzviy bog'langanligini ko'rsatib beruvchi omil hisoblanadi. Bunda, har bir mamlakat soliq qonunlari va qoidalari mavjudligini hisobga olsak, ular soliq obyektlarini

qanday belgilash va soliq bazasini qanday hisoblashni ko'rsatib beradi. Ushbu qonunlarni tahlil qilish orqali esa soliq obyektlari va soliq bazasi o'rtasidagi bog'liqlikni yanada chuqurroq tushunish mumkin bo'lsa, soliq siyosatini ishlab chiqishda soliq obyektlari va ularning ta'siri hisobga olish, yangi soliq qonunlarini joriy etishdan oldin, ularning qanday qilib soliq bazasini kengaytirishi yoki qisqartirishi mumkin ekanligiga urg'u beradi.

Soliqqa tortishning yana bir muhim elementi hisoblangan soliq stavkasi soliqlarni belgilashdagi va soliq tushumlarining miqdorini aniqlashdagi indikator hisoblanadi. Soliq stavkasi va soliq bazasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik iqtisodiy tizimning asosiy jihatlaridan biridir. Soliq stavkasi – bu soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqning foiz ko'rsatkichi, soliq bazasi esa bu soliq hisoblangan asos yoki qiymatdir. Ularning o'zaro bog'liqligi iqtisodiy faoliyatga, investitsiyalarga va ijtimoiyadolatga bevosita ta'sir qiladi. Shuning uchun ham davlat organlari ushbu bog'liqlikni hisobga olgan holda soliq siyosatini ishlab chiqadilar va soliq stavkalarini belgilaydilar.

Soliq stavkasi va soliq bazasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik quyidagi 3-rasmida namoyon bo'ladi.



3-rasm. Soliq stavkasi va soliq bazasining o'zaro bog'liqligini ko'rsatuvchi omillar

Manba: muallif ishlanmasi.

Yuqoridagi rasmida keltirilgan chizmada soliq stavkasi va soliq bazasining bir-biri bilan aloqasi ifodalangan bo'lib, bunda davlat soliq stavkasini oshirsa, bu soliq to'lovchilarni ko'proq soliqqa tortishga olib kelishi, natijasi esa soliq bazasi torayishiga hamda iqtisodiy faoliyatni pasayishi va korxonalarining investitsiya qilishni kamaytirishiga olib kelishi ma'nosini anglatmoqda. Shu bilan birga, agar davlat iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida soliq stavkalarini pasaytirishni qaror qilsa, bu xolat korxonalarini yangi investitsiyalar qilishga undaydi, fuqorolar daromadini yashirmslikka sabab bo'ladi va natijada soliq bazasi kengayishi davlat byudjetiga ko'proq daromad olib kelishi mumkinligini tasvirlamoqda.

Qolaversa, klassik iqtisodchi Artur Laffer (1981) soliq stavkalari va davlat soliq tushumlari o'rtasidagi nazariy bog'liqlikni Laffer egri chizig'i deb nomlangan ilmiy ishlanmasida ta'kidlab o'tgani ham bizning fikrimizga yana bir dalil hisoblanadi. Uning qarashlariga ko'ra, soliq tushumlarining hajmi juda past yoki o'ta yuqori soliq stavkalarida farq qilishini, biroq, shunday bir oraliq soliq stavkasida soliq tushumlari maksimal darajaga ko'tarilishini isbotlashga uringan. Ya'ni, olim, insoniyat past stavkali soliq siyosatida ishlashdan rag'batlanmasliklari yoki yuqori soliqqa tortish tufayli ishlashdan tushkunlikka tushishlarini asoslab bergen. Laffering tadqiqot ishi natijasiga ko'ra, soliq siyosati, jumladan, optimal soliq

stavkalari va soliq bazasini aniqlash bo'yicha muhokamalarga va soliq siyosatidagi o'zgarishlar iqtisodiy o'sish va soliq bazasiga qanday ta'sir qilishi mumkinligiga qaratilgan (Laffer, 1981). Xulosa qilish mumkinki, soliq stavkasi soliq tushumlariga bog'liq ekanligi uni soliq bazasi bilan ham aloqasini ta'kidlaydi hamda bu soliq stavkasi va soliq bazasi o'rtasidagi bog'liqlik iqtisodiy siyosatning samaradorligini belgilab, davlatning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Soliq bazasining soliqqa tortishning boshqa elementlari bilan uzviy aloqasini ko'rsatib beruvchi yana bir ko'rsatkich – bu soliq davridir. Soliq davri – bu soliq to'lovchilarining soliq majburiyatlarini bajarishlari uchun belgilangan vaqt oralig'i hisoblanib, bu davr odatda yil, chorak yoki oy bo'lishi mumkin. Soliq davrida to'plangan daromadlar va xarajatlar soliq hisob-kitoblarini amalga oshirishda asosiy rol o'ynaydi. Ma'lumki, soliq davrining uzayishi yoki qisqarishi soliq bazasining shakllanishiga ta'sir qiladi. Masalan, soliq davrining uzayishi soliq to'lovchilarga o'z to'lovlarini taqdim qilishlari uchun ko'proq vaqt beradi, bu esa ularning moliyaviy holatini yaxshilashga va natijada soliq bazasini kengayishiga olib kelsa, soliq davrining juda qisqa bo'lishi bu to'lovchilar uchun qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Ushbu xolatning oqibatlari esa soliq bazasining kamayishiga olib kelishi turgan gap.

Soliq davri va soliq bazasi orasidagi bog'liqlikni ko'rsatish uchun quyidagi asosiy jihatlarni ko'rib chiqish lozim deb hisoblaymiz:

birinchidan, soliq davri va soliq bazasi o'rtasidagi bog'lanishni chuqurroq tushunish uchun *iqtisodiy barqarorlik va siyosiy iqlimga* e'tibor qaratsak. Davlatning soliq siyosati va iqtisodiy strategiyalari soliq davrining uzoqligi va soliq bazasining kengayishidagi asosiy dastakdir. Qolaversa, iqtisodiy va siyosiy sharoitlarning o'zgarishi ham (masalan, inqiroz yoki o'sish) soliq davrida daromad va xarajatlarga ta'sir qilib, soliq bazasini kengaytiradi yoki qisqartiradi;

ikkinchidan, *daromadlar va xarajatlar tarkibini* ko'rib chiqsak. Ya'niki, soliq davrida to'plangan daromadlar (ish haqi, foyda, dividendlar) soliq bazasini shakllantirsa, amalga oshirilgan xarajatlar soliq bazasini qisqartiradi;

uchinchidan, soliq bazasini shakllantirishda *mavsumiylik* ham muhim ahamiyatga ega. Ba'zi faoliyatlar (masalan, qishloq xo'jaligi) mavsumiy bo'lishi mumkin. Bu esa soliq davrida olingen daromad va xarajatlarni sezilarli darajada o'zgartirishi va soliq bazasiga o'z ta'sirini berishi mumkin.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, soliq davrining soliq bazasiga ta'sirini ko'rsatishda grafik usullardan ham foydalanish mumkin. Masalan:

- X-o'q: Soliq davri (yil, chorak, oy);
- Y-o'q: Soliq bazasi (daromad, xarajatlar).

Grafikda har bir davr uchun soliq bazasining o'zgarishini ko'rsatish orqali ularning o'zaro bog'liqligini vizual ravishda ifodalanadi.

Soliq bazasining soliqqa tortishning boshqa elementlari bilan aloqalarini deyarli ko'rib chiqdik va tahlillar orqali o'zaro bog'liqligini yoritib berishga harakat qildik. Biroq, shunday soliq ko'rsatkichi borki, u soliq elementi sifatida tan olinmasada, soliq tushumlarini hisobga olishda juda ham muhim omil sanaladi va soliq bazasiga o'z ta'sirini ko'rsatishda birinchilar safida turadi. Bu – soliq bazasi bo'lib, "Soliq to'lovchilarining ayrim toifalariga boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan soliq to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan afzalliklar, shu jumladan soliqni to'lamaslik yoki ularni kamroq miqdorda to'lash imkonini berishdir" (Kodeks, 2022).

Soliq bazasi va soliq imtiyozlarining bog'liqligini ko'rsatib beruvchi bir qancha omillar mavjud. Ular 1-jadvalda tasvirlangan.

1-jadval


Soliq bazasi va soliq imtiyozlarining bog'liqligini tasvirlovchi omillar

Nº	Omillar	Soliq basasiga ta'siri
1	Soliq tizimi	Soliq tizimi xususiyatlaridan kelib chiqib, turli imtiyozlar belgilanadi va soliq bazasi shakllanadi
2	Iqtisodiy o'sish	Imtiyozlar orqali iqtisodiy faoliy rag'batlantiriladi va soliq bazasi kengayadi
3	Davlat siyosati	Davlatning iqtisodiy siyosati va maqsadlaridan kelib chiqqan holda soliq imtiyozlar belgilanadi va soliq bazasi kengayadi
4	Ijtimoiy omillar	Ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish maqsadida ayrim guruhlarga (kam ta'minlangan oilalar) soliq imtiyozlar berilishi soliq basasiga ta'sir qiladi
5	Soliq qonunchiligi	Qonunlardagi o'zgarishlar, jumladan, imtiyozlarning bekor qilinishi yoki yangi imtiyozlarning joriy etilishi, soliq bazasini o'zgartiradi
6	Xalqaro tajriba	Xalqaro tajriba va standartlar orqali turli soliq imtiyozlar belgilanishi mumkin

Manba: muallif ishlanmasi.

1-jadvalda soliq imtiyozining soliq basasiga ta'sirini izohlovchi omillar keltirilgan bo'lib, bu omillar oltita jihat bilan tasvirlanadi. Chunonchi, soliq tizimi har bir davlatda o'ziga xos bo'lib, imtiyozlar qanday belgilanganishiga qarab soliq bazasi shakllansa, iqtisodiy o'sayotgan davlatlar soliq bazasini yanada kengaytirish maqsadida ko'proq soliq imtiyozlariga urg'u berishadi. Davlat siyosatining mazmuni ham soliq imtiyozlarining keng yoki tor berilishidan kelib chiqib soliq bazasini kengaytirish yohud qisqartirish chora-tadbirlari bilan olib borilsa, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish maqsadida ayrim guruhlarga soliq imtiyozlar berish orqali soliq basasiga ta'sir qilish ijtimoiy omil hisoblanadi. Shuningdek, qonunlardagi o'zgarishlar, ya'niki, imtiyozlarning bekor qilinishi yoki joriy etilishi sabab soliq bazasi o'zgartirilsa, soliqqa oid xalqaro tajriba va standartlar ham soliq bazasini soliq chegirmalari asosida o'zgartirishning samarali usullaridan biri hisoblanadi.

Ko'rib turganigizdek, biz yuqorida tahlil etganimiz soliq basasining soliqqa tortishning boshqa elementlari bilan o'zaro bog'liqligi xususidagi qarashlar anchagina chuqur mushohada etishga undaydigan mavzu bo'lib, soliq basasining soliqqa tortish elementlariga ta'sir etuvchi umumiy omillarni keltirib chiqaradi.



4-rasm. Soliq basasining soliqqa tortish elementlariga ta'sir etuvchi omillari

Manba: muallif ishlanmasi.

Yuqorida tasvirlangan 4-rasmida soliq bazasining soliqqa tortishning boshqa elementlari bilan o'zaro bog'liqligi umumiy jihatdan tasvirlangan bo'lib, unga ko'ra iqtisodiy, ijtimoiy, xalqaro omillar, soliq siyosati va turli sohalardagi o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Xususan, iqtisodiy omillar tarkibi daromad darajasi, iqtisodiy o'sish, inflyatsiya kabi ta'sirlar bilan izohlansa, ijtimoiy omillar aholini ish bilan qamrab olinish darajasi, yoshlar va pensiya yoshidagi aholi soni bilan namoyon bo'ladi.

Turli o'zgarishlar tarkibi esa moliya bozoridagi va sanoat tarmoqlaridagi tebranishlarni nazarda tutib, investitsiyalar va capital bozoridagi harakatlar, sanoat va boshqa tarmoqlardagi o'zgarishlar soliq bazasini shakllantirishdagi muhim rolini ta'kidlaydi. Xalqaro omillar fonida esa xalqaro savdo va investitsiyalar, xalqaro bozorlardagi, davlatlar o'rtasidagi soliq kelishuvlari e'tiborga olinadi. Albatta, bu omillar birgalikda soliq tizimining samaradorligini belgilaydi va davlatning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa va takliflar.

Soliq bazasining soliq elementlari bilan o'zaro bog'liqligi iqtisodiy tizimning samaradorligi va barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynashini yuqoridagi tahlillar orqali ko'rish mumkinki, soliq elementlari, jumladan, soliq obyekti, soliq stavkalari, soliq davri va soliq imtiyozlari davlat byudjetining moliyaviy resurslarini shakllantirishda va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada soliq bazasining kengayishi va uning elementlari o'rtasidagi bog'liqlikni muhokama qilish orqali, soliq siyosatining samaradorligini oshirish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va adolatli soliq tizimini yaratish mumkinligi ko'rsatildi. Bunda, soliq elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, bir tomonidan, davlatning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga, ikkinchi tomonidan, iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, soliq bazasining kengayishi orqali davlat ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatini ham oshiradi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqqan holda quyidagi takliflarni berish mumkin:

1. Soliq stavkalarini va imtiyozlarni qayta ko'rib chiqish orqali iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish va soliq bazasini kengaytirish maqsadida samarali strategiyalar ishlab chiqilish orqali soliq siyosatini doimiy takomillashtirib borish lozim;
2. Soliq to'lovchilar uchun qulaylik yaratish va soliq yig'implari hajmini yaxshilash maqsadida soliq ma'lumotlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish jarayonlarini yanada tezlashtirish zarur;
3. Soliq tizimi haqida aholini muntazam xabardor qilish va ta'lim berish orqali soliq to'lovchilarni faolligini oshirish va soliq intizomini kuchaytirish kerak;
4. Soliq bazasining holatini doimiy ravishda monitoring qilish va baholash tizimini joriy etish, shuningdek, natijalar asosida zarur o'zgarishlarni kiritish muhimdir;
5. Soliq tizimini ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslanib takomillashtirish, ya'ni yuqori daromadli qatlamlardan ko'proq soliq olish va past daromadli qatlamlarga imtiyozlar berish orqali ijtimoiy tenglikni ta'minlash darkor.

Ushbu takliflar amalga oshirilishi orqali soliq bazasining sifatli rivojlanishi va uning elementlari o'rtasidagi bog'liqlik samarali tarzda boshqarilishi mumkin deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar /Литература/Reference:

Alan J. Auerbach., Martin Feldstejn. (2002), "Handbook of Public Economics volume 4", - October 21,. Editors: A.J. Auerbach, M. Feldstein. Hardback ISBN: 9780444823151

Friedman, M., Friedman, R.D. (1982). Capitalism and freedom. Великобритания: University of Chicago Press.

Gary S. Becker (1976), "The Economic Approach to Human Behavior", University of Chicago Press, - 314 p.

John Maynard Keyns, (1936), "The General Theory of Employment, Interest, and Money"

- Jo'rayev A., Shirinov S., (2015) Soliq statistikasi va prognozi: O'quv qo'llanma/ O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi; -T.: "IQTISOD-MOLIYA", -312.
- Kodeks (2022) O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. -T.: Adolat.
- Laffer A.B. (1981) Government exactions and revenue deficiencies //Cato J. – T. 1. – C. 1.
- Martin Feldstein (1976), "On the theory of tax reform", *Journal of Public Economics*, Volume 6, Issues 1-2, Pages 77-104.
- Michael Keen and Joel Slemrod. (2017), *Journal of Public Economics*, vol. 152, issue C, 133-142
- Musgrave R.A. (1989) *Tax Analysis in Developing Country Settings*. – World Bank.
- Poterba J.M., Summers L.H. (1983) Dividend taxes, corporate investment, and 'Q' //*Journal of Public Economics*. – T. 22. – №. 2. – C. 135-167.
- Ricardo, D. (1817), 'The Principles of Political Economy and Taxation', Dutton, New York.
- Smith, A., (1776), *The Wealth of Nations*, Book 1. Lond. Methuen Co., 422 p.
- Stiglitz, J. E. (2019). *Selected Works of Joseph E. Stiglitz: Volume III: Rethinking Microeconomics*. Великобритания: OUP Oxford.
- Vahobov A.V., Jo'rayev A.S. (2009) *Soliqlar va soliqqa tortish: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / O'zR olivy va o'rta-maxsus ta'lif vazirligi*, Toshkent Moliya in-ti, -Toshkent: Sharq, -448 b. (25 6).
- Xalikchayeva, S. (2021). O 'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA MAVJUD SOLIQLAR BAZASINI ANIQLASH TARTIBI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING XUSUSIYATLARI. Iqtisodiyot va ta'lif, (5), 255-260.
- Xalikchayeva, S. (2024). *SOLIQ SIYOSATINING SOLIQLAR BAZASIGA TA'SIRINI BAHOLASH USULLARI*. Страховой рынок Узбекистана, 1(6), 47-50.
- Худойкулов С.И. (2020) "Молия ва солиқлар": Дарслик. -T.: "IQTISODIYOT", – 554 б. (171 б)